

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI HIKOYATLARDA ORIFLAR TIMSOLI

Nazarova Hilola

Samarqand davlat universiteti magistranti (O'zbekiston)

ANNOTATSIYA

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asari qomusiy asar bo'lib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o'ta dolzarb bo'lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug' mutafakkirning teran axloqiy-ma'naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan. Turkiy adabiyot tarixida bunday asarlar ramziy-majoziy obrazlarning turli masalalarga oid savol-javobi (Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”) yoki asar muallifining hadislarga tayanib insonning ma'naviy kamolatga yetkazuvchi fazilatlarini hamda uni jaholat botqog'iga chorlovchi nuqsonlarini qiyoslash (Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq”) uslubi bilan vujudga kelgan bo'lsa, Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostoni kuzatilgani singari “Hayrat ul-abror”da ham ijodkorning barkamol shaxs haqidagi o'ylari maqolatlarda yorqin in'ikosini topgan. Asardagi hikoyatlar esa maqolatlarda ilgari surilgan tayanch g'oyalarni kitobxon shuuriga yanada teranroq ta'sir etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishiga imkon yaratadi.

“Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) janr xususiyati va kompozitsiya tuzilishi jihatidan “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan tubdan farq qiladi. “Hayrat ul-abror” falsafiy-ta'limiy dostonidir. Bu asarida Navoiy falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy qarashlarini bayon etish, kishilarga ta'lim va o'git berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Doston boshdan oyoq orifona ruxda ifodalangan. Navoiy “Hayrat ul-abror”da o'zi e'tiqod qilgan shayxlar, valiylar siymosini chizib ular orqali iymon va e'tiqod g'oyalarini ilgari surgan.

Kalit so'zlar: *“Hayrat ul-abror”, so'fiyona, orifona, iymon, islom, Ibrohim Adham, Robiya Adviya, Abdulloh Ansoriy, Boyazid Bistomiy.*

THE IMAGE OF THE SAGES IN THE STORIES IN THE EPIC “HAYRAT UL-ABROR” BY ALISHER NAVOI

Nazarova Khilola

Master student of Samarkand

State University

ABSTRACT

The work of “Hayrat ul-abror” by Alisher Navoi is an encyclopedic work, the articles and stories of which form the main part of it shows the philosophical

consideration found artistic expression. In the history of Turkish literature such works are a question-and-answer session on various issues of symbolic metaphors (Yusuf Khos Hajib's "Qutadg'u bilig") as a comparison of the author's hadith-based qualities of spiritual maturity and shortcomings that lead him to the swamp of ignorance (Ahmad Yugnakiy's "Hibat ul-haqoyiq") in the style of Nizami Ganjavi's "Makhzan ul-asror", as well as in the poem "Hayrat ul-abror", the author's thoughts on the perfect person are reflected in the articles. The stories in the work have a deeper effect on the reader's consciousness of the basic ideas put forward in the articles, allowing him to get acquainted with the subject more thoroughly.

"Hayrat ul-abror" ("Surprise of good people") is radically different from other epics of "Khamasa" in terms of genre and composition. "Hayrat ul-abror" is a philosophical-educational epic. In this work, Navoi aims to express his philosophical, socio-political and moral-educational views, to educate and instruct people. From beginning to the end, the epic is expressed in the spirit of perfectly.

Keywords: *"Hayrat ul-abror", sufi, arifana, fait, islam, Ibrahim Adham, Robiya Adviya, Abdullah Ansari, Boyazid Bistomiy.*

ХАЙРАТ УЛЬ-АБРОР" АЛИШЕРА НАВОИ ВОПЛОЩЕНИЕ МУДРЕЦОВ В ДАННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ

Назарова Хилола

Самаркандский Государственный Университет

Магистрантка (Узбекистан)

АННОТАЦИЯ

"Хайрат уль-аброр" Алишера Навои - энциклопедический труд, статьи и рассказы которого составляют его основную часть, его социально-философские соображения нашли свое художественное выражение во всех временах и сферах жизни. В истории турецкой литературы такие произведения представляют собой вопрос и ответ символических образов по разным вопросам ("Qutadgu bilig" Юсуфа Хас Хаджиба) или сравнение основанных на хадисах качеств автора: духовной зрелости и недостатков, которые ведут его в болото невежества (Ахмад Югнакий "Хибат уль-Хакайик"), а также в эпосах Низами Гянджеви "Махзан уль-Асрор и "Хайрат уль-Аброр" ярко отражены в статьях мысли автора об идеальном человеке. Рассказы в произведении глубже влияют на осознание читателем основных

идей, выдвинутых в статьях, позволяя более основательно познакомиться с предметом.

“Хайрат уль-аброр” (“Смятение праведных”) кардинально отличается от других эпосов “Хамсы” по жанру и композиции. “Хайрат уль-аброр” - философская и просветительская эпопея. В этом произведении Навои стремится выразить свои философские, общественно-политические и нравственно-просветительские взгляды, обучить и наставить людей. От начала до конца эпос выражен в духе любви к Аллаху.

Ключевые слова: “Хайрат уль-аброр”, суфий, ариф, вера, ислам, Ибрагим Адхам, Робия Адвия, Абдулла Ансари, Боязид Бистони.

KIRISH

Hayrati abror ko'rib zotini

“Hayrat ul-abror” dedim otini .¹[94]

“Hayrat ul –abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) dostonida Nizomiy soʻzining nuri ham Xusrav sehri ham Jomiyning oriflik nafasi ham iz qoldirgan va boz ustiga ulugʻ oʻzbek shoirining oʻz qarashlari , buyuk istedodi , namoyon etilgan.

Taʼkidlash oʻrinliki, Navoiy “Hayrat ul-abror”da barcha salaflaridan andoza oldi va ayni paytda uslub ,gʻoya ,mazmun , hajm, badiiyat va obrazlar nuqtai nazaridan ularnikiga oʻxshamagan orginal muqaddimaviy dostonni yaratdi. Navoiy maqolotlarida tasavvufiy-maʼrifiy mohiyat kuchli . Shuningdek, har bir bob,maqolot va hikoyat zamirida oʻz davri ijtimoiy-siyosiy muommolariga real munosabat aks etgan.

“Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarni koʻzdan kechiradigan boʻlsak , bizni dastavval orifona mazmundagi hikoyatlar ,yaʼni soʻfiylar hayotidan olingan va tasavvuf gʻoyalari aks etgan hikoyatlar qiziqtiradi. Hikoyatlar odatda qisqa sujetli boʻlib , tafsilotlardan holi boʻlgan .²[99]

“Hayrat ul-abror” dostonidagi maqolat va hikoyatlarda insonni ezgu amallar sohibi boʻlib, noqisliklardan mosuvo boʻlishga daʼvat etilar ekan, fikrining tasdigʻi sifatida dostonidagi qahramonlar haqiqiy orifona ruxda tasvirlangan.Shuning uchun ham turli ijtimoiy tabaqa vakillari tanlangan. Shoh Gʻoziy (Sulton Husayn Boyqaro), Anushirvon odil, Sulton Muhammad Xorazmshoh, Iskandar, Bahrom singari hukmdorlar, Boyazid Bistoniy, Ibrohim Adham, Robiya Adviya, Xoja Abdulloh

¹ Алишер Навоий . “Хайрат ул-аброр. ТАТ. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд.-Т.: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Ғ.Ғуллом номидаги нашриёт-марбаа ижодий уйи, 2013

² Мухиддинов М.Қ. Комил инсон - адабиёт идеали. - Т.: Маънавият, 2005.

Ansoriy, Shayx Iroqiy, Imom Faxr Roziy, Abdulloh Muborak, Hasan Robi', Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr kabi tasavvuf ahli namoyandalari, shuningdek, darvesh va mehnatkash inson timsoli bo'lgan o'tinchi chol, oddiy xalq vakili hisoblangan ikki vafoli yor, yuksak insoniy fazilatlamini o'zida mujassamlashtirgan "qoni' javonmard" va boylikka hirs qo'ygan "tomi' jahongard" kabi obrazlar ishtirokida maydonga kelgan g'oyatda sermazmun badiiy lavhalarda insonni komillik rutbasida ko'rish g'oyasi hayotiy timsollar bilan boyitiladi. Ko'rinadiki, ulug' shoir dunyoqarashicha, inson qaysi tabaqa vakili bo'lishidan qat'iy nazar, ma'naviy kamolot pillapoyalari odimlab bashariyatning oriflik darajasini egallashga haqli.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Navoiy dostonida birinchi maqolati iymon kalimasining sharhidan iborat. Iymon kalimasida ollohning yakka-yagonaligiga, uning farishtalariga va kitoblariga, payg'ambarlariga va oxirat - qiyomat kunning muqarrarligiga, yaxshilik va yomonlik taqdirdan ekanligiga, so'ngra o'limdan keyin qayta tirilishga iymon keltirilgan. Navoiy buni "maqolat"ning nasriy sarlavhasida to'liq keltiradi, so'ngra mana bu baytlar bilan bobni boshlaydi:

Kimki jahon ahlida inson erur,

Balki nishoni anga iymon erur. [50]

Demak, insoniylikning birinchi nishonasi iymonli bo'lish. Iymon - insonni hayvondan ajratuvchi asosiy sifat, chunki Navoiy fikricha, garchi nutq, so'z insonni hayvondan ajratuvchi belgisi bo'lsa-da, agar kishida iymon bo'lmasa, u inson emas, balki gapiruvchi hayvondir.

"Hayrat ul-abror" dostonning Islom bobida maqolatida Ibrohim Adhamning Ka'baga safari va Makkada Ka'baning joyida yo'qligi haqida hikoyat keltirilgan. Qarasaki Ka'baning Robiya Adviya bilan birga ekanligi tasvirlangan. Navoiy bu hikoyatda namoz va niyoz tushunchalarini qiyoslaydi.

Robiya dedi anga: "Ogoh bo'l,
Kim necha yil bodiyada borcha yo'l,
Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.
Sanga samar berdi namozu riyo,
Bizga bu bar berdi niyozu fano".³[15]

Najmiddin Komilov so'fiyona she'riyat VIII-XI asrlarda Robiya Adviya ,

³ Алишер Навоий. Хамса, Танкидий матн, Нашрга тайёрловчи П.Шамсийев. Т.: "Фан", 1960й

Mansur Halloj singari ulug' so'fiylar ijodi bilan boshlanganini ta'kidladi. ⁴

Ibrohim Adham Xudoga xizmatning yo'li deb namoz va ibodatga beriladi . Robiya Adviya esa niyozmand, ya'niki u oshiq , yonib-kuyib faqat Xudoni sevgan , u olloh ishqidan ha o'zini,na olamni, na nomozni ,na ibodatni bilardi. Navoiy mana shunday oshiqona sadoqatni zohiriy toat-ibodatdan ustun qo'ygan . Bu bilan Navoiyni islom dininig mohiyatini so'fiyona ruhda idrok etgan.

Navoiy dostonining to'rtinchi maqolati Riyoyi xirqapo'shlar haqida bo'lib hirotlik mashhur xoja Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoyat orqali yoritilgan. Navoiy bu zotni olloh vasliga yaqinlashgan ("Muqarrabi bori") avliyo biladi va qattiq hurmat qilgan. Abdulloh Ansoriy "piri hirot" laqabi bilan nom qozongan edi, tasavvuf tariqatida u kishining alohida o'rne bor. U tariqat odobi va maqomatning yuzta bosqichini ishlab chiqqan bo'lib,tasavvufning qariyib barcha savollariga javob yozgandir.Hikoyatda Navoiy keltiradiki, Abdulloh Ansoriy jannat umidida yoki do'zaxdan qo'rqib, tama yuzasidan mol-mansab uchun emas, balki "Tangrining amriga itoat" yuzidan toat qilar edi. U qo'rqishdan emas, muhabbatdan xudojo'ylik qilardi. Tama umidida so'fiylik qilish chin so'fiylik emas, Ansoriy deydi:

*Menki ishim bo 'ldi parastish mudom,
Biymu umid ikkisi bo 'lmush harom.
Bandaliq amriga chu ma'murmen,
Tun-kun ishim bu esa ma'zurmen. [60]*

Qalbm amri bilan Tangri amring bajaraman, "raddu qabuli bila ishim yo'q", deydi u. ⁵[103]

"Hayrat ul-abror"dostonidagi inson va iymon masalasiga Boyazid Bistoniy haqidagi hikoyada to'xtalgan. U iymonning asosini insoniylikda ko'radi:

*Kim chu fido aylagusi jon anga,
Hamrah o'lur yo'qsa yo'q imon anga. [94]*

Dostonda Boyazid Bistoniy g'amingin ifodalangan.U hayoti davomida ko'p riyozatlar ,ibodatlar qilgan bo'lsa ham ,olloh huzuriga qaytganda imon bilan borish nasib etadimi deb g'am tashvishda yashagani hikoya qilingan. Fariddin Attorning "Tazkirat ul-anbiyo" asarida Boyazid Bistoniy hayotiga doir yetmishdan ortiq katta-kichchik hikoya va hikmatlar keltirilgan. ⁶

XULOSA

⁴ Нажмиддин Комилов .Тасаввуф .-Т.: МОВАРОННАХР-ЎЗБЕКИСТОН, 2009й.

⁵ Мухиддинов М.Қ. Комил инсон - адабиёт идеали. - Т.: Маънавият, 2005.

⁶ Фариддин Аттор . "Тазкират ул –авлиё".-Т.:2013й.

1. Dostonda tasavvuf ta'limoti g'oyalari va undan hosil bo'lgan orifona olam hukmron bo'lgan. Dostonda asosan ko'ngil, qalb iymon va axloq masalalariga to'xtalgan.

2. Hikoyatlar "maqolat"dagi g'oyani tasdiqlaydi. Ular qisqa-qisqa shaklda bo'lib, asosiy voqeani bayon etishga e'tibor qilingan. Biroq shu qisqa syujet ichida ham shoir qahramonining xatti-harakati, asosiy xislat va karomat hozirjavobligini ko'rsata olgan. Hikoyatlar muhim timsol sifatida muayyan ijobiy g'oyani yoyish, ibrat bo'lishga xizmat qilgan.

REFERENCES

1. Алишер Навоий. Хамса, Танқидий матн, Нашрга тайёрловчи П. Шамсийев. Т.: "Фан", 1960 й.
2. Нажмиддин Комилов .Тасаввуф .-Т.: МОВАРОННАХР-ЎЗБЕКИСТОН, 2009й.
3. Фариддин Аттор . "Тазкират ул –авлиё".-Т.:2013й.
4. Алишер Навоий . "Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд.-Т.: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-марбаа ижодий уйи, 2013.
5. Мухиддинов М.Қ. Комил инсон - адабиёт идеали. - Т.: Маънавият, 2005.
6. Mukhiddinov M.K. Love is the cleansing power. Science and Engineering Research Support Society. ISSN: 2005-4238 (Print);ISSN: 2207-6360
7. Khasanova Mashkhura Jumanovna. The role of praises in the development of turkic odes. .Journal of critical reviews, 2020.07. 948-951